

TURKIYA, SURIYA VA IROQ MUNOSABATLARIDA SUV RESURLARI MUAMMOSI

Abdujabborov Akmal Alisher o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik yo'nalishi II-

bosqich magistranti

e-mail: akmal92.05@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Turkiya, Suriya va Iroq ziddiyatlari manbasi – suv resursining ahamiyati tahlil qilingan. Yaqin Sharqdagi Furot va Dajla daryolarining o'рни yoritilgan. Suv resurslarining oqilona boshqarilmasligi oqibatida kelib chiqadigan xalqaro munosabatlardagi ziddiyatlar sabablari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: suv resurslari, Yaqin Sharq, Turkiya, Suriya, Iroq, ISHID, Furot va Dajla, ziddiyatlar, xalqaro munosabatlar.

Summary: The research analyzes the importance of water resources, a source of conflict in Turkey, Syria and Iraq. The role of of the Euphrates and Tigris in the Middle East is highlighted. The causes of conflicts in international relations arising from the improper management of water resources are analyzed.

Keywords: water resources, Middle East, Turkey, Syria, Iraq, ISIS, Euphrates and Tigris, conflicts, international relations.

KIRISH

Suv – tarix davomida Yaqin Sharqdagi mojarolarning asosiy manbalardan biridir. Xususan Dajla va Furot suvlari Shomdagi sug'orish ishlarida keng ko'lamda ishlatilgan. Dajla milod. avv. 2500-yilda Bobil uchun janglarda Umma va Girsu qirollari tomonidan qurol sifatida ishlatilgan. Bugun, mutaxassislarning hisobiga ko'ra, suv neftdan ko'ra qimmatli va xatarli resursga aylanib bormoqda [1]. Neft Yaqin Sharq iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin egallasa, suv mintaqaning tirikchiligi va turmushi uchun muhimdir.

Turkiya, Suriya va Iroq o'zaro Dajla-Furot havzasi orqali bog'langan bo'lib, bu daryolar Turkiyaning janubi-sharqidan boshlanadi. Dajla suv oqimining taxminan 90 foizi hamda Furot oqimining 50 foizi Turkiya hududidan oqib o'tadi. Turkiya, Suriya va Iroqdagi 27 millionlik aholi uchun Furot daryosi asosiy suv manbasi sanaladi. Furot shimol bo'ylab Suriyaga va Iroqqa qarab oqadi. Dajla daryosining 32 kilometri Suriya va Turkiyani o'zaro

ajratib turadi va keyin Iroq orqali janubga qarab oqadi. Daryolar elektr energiyasi ishlab chiqarishda ham mintaqaviy ahamiyatga ega.

Iroqqa oqayotgan suv resurslarining deyarli yarmi Dajla daryosidan kelsa, qolgan yarmi Erondan keladi. Bu daryolar Iroqda birlashib, Shat-al-Arab daryosini hosil qiladi. Bu daryo Janubga – Fors ko'rfaziga quyiladi.

MUHOKAMA

Suv sababli ziddiyatlar 1960-yillarda boshlangan. Aholining demografik o'sishi, har bir mamlakatni suv resurslarini mustaqil o'zlashtirishga undadi. Suriyaning Tabqa to'g'oni ishga tushishi, Iroqdagi suv zahiralari qattiq ta'sir ko'rsatdi. Oqibatda 1974-yilda suv tushish tezligi 920 kub/metrdan/sekunddan 197 kub/metr/sekundgacha pasayishi, Iroqni aralashuvni so'rab, arab mamlakatlari ligasiga murojaat qilishga undadi. 1975-yilga kelib Suriya-Iroq chegarasida ikki mamlakat qo'shinlari to'planishi kuzatildi. Saudiya Arabistonining mojaroni hal qilish borasidagi harakatlari oqibatda kelishuv tuzilishiga olib keldi. Bu kelishuv Suriyada 40% suv manbalarini saqlab qolishga, 60% suv resurslarini esa Iroqqa yo'naltirishni ko'zda tutadi.

Turkiya 1975-yilda Janubi-Sharqiy Anatoliya mintaqasidagi 9 ta hudud infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan "Janubi-Sharqiy Anatoliya" ("GAP") loyihasi ustida ish boshladi. Loyiha doirasida Dajla-Furot daryolari basseynida 22 ta to'g'on, 19 ta GES va sug'orish kanallarini qurish rejalashtirilgan. Biroq quyida sanab o'tilgan ehtimoliy xatarlar, bir qator xorijiy kompaniyalarni bu loyihani moliyalashtirishdan bosh tortishga undadi:

- Hisoblarga ko'ra, loyiha Furot daryosi suv resursining 70 foizini band qiladi. Bu Suriya tomon oqayotgan Furot daryosi suvining 50 foizini, Iroq tomon oqayotganini esa 90 foizini ushlab qolishga olib keladi.

- Oqayotgan suvning pestitsidlar va mineral o'g'itlar qoldiqlari bilan ifloslanishi ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

- Turkiyadagi Iisu suv ombori buzilib ketishi ehtimoli, 52 ta qishloq va 15 ta shaharni suv bosishi xatari bilan ahamiyatli sanaladi. Buning oqibatida 16 ming nafar aholi, ayniqsa beqaror kurdlar aholisi o'z ekologiyasidan chetlatilishi xavfi mavjud.

Natijada "GAP" loyihasi doirasidagi qurilish ishlari 1980-yillar o'rtasida sekinlashib, 1990-yil boshlarida butunlay to'xtadi. Bunga asosan mintaqadagi kurdlar muholifatining faoliyati sababchi bo'ldi va ajratilgan resurslar asosan norozilikka qarshi kurashga qaratildi. Bundan tashqari o'sha davrdagi bir qator inqirozlar ham loyihani yakunlashga jiddiy to'sqinlik qildi.

1990-yilga kelib, Turkiya Furot daryosining Suriyaga va Iroqqa qaragan oqimini 75 foizga qisqartirdi. Suvning past darajasi qo'shni mamlakatlarning

siyosati, ichki infratuzilmani yaxshi boshqarmaslik, aholi soni o'sishi va qurg'oqchilikni oshishi oqibati bo'ldi. Natijada Iroqda qishloq xo'jaligi va baliqchilik sohasi zararga kirdi, xurmo bog'lari shunchaki tashlab ketildi. Sho'r suv Fors ko'rfazi ichiga kirdi. 2009-yildagi UNESCO hisobotida 100 ming Iroqlik, ayniqsa, Shimoliy Iroqning botqoqli hududlari aholisi 2005-yildan beri, suv tanqisligi tufayli o'z makonini tashlab ketgani aniqlangan [3]. Hisobotda Dajla va Furot daryolaridagi suv sathining 2/3 qismidan ortig'i pasayganligi aniqlanib, 2040-yilga kelib dayolar butunlay qurib ketishi mumkinligi haqida ogohlantirildi.

Turkiya va Suriya, Turkiya va Iroq o'rtasidagi kelishuvlar tuzilishidan oldin mamlakatlararo muzokaralar olib borilishi zarurati, mamlakatlar tomonidan e'tiborsiz qoldirilmoqda. Xususan, do'stlik va ahil qo'shnichilik shartnomasida, shuningdek, 2009-yilgi Butunjahon suv sammitida Turkiya Iroqqa 400 kub.m./s oqim tezligi ta'minlanishi va'da qilgan, ammo yog'ingarchilik sezilarli darajada kamayganidan keyin bu shartnoma amal qilmay qo'ygan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro suv oqimlaridan kema harakatisiz foydalanish huquqi to'g'risidagi konvensiyasi, agar davlatlar xalqaro suv oqimidan birgalikda foydalanilsa, boshqalarga zarar yetkazmaslik uchun tegishli choralarni ko'rishlari kerakligini belgilaydi. Biroq bu shartnoma mujmal bo'lganligi sababli, Turkiya unga qarshi ovoz bergan. Bundan tashqari, arab davlatlari ligasi 2008-yildan beri suvdan foydalanish bo'yicha yangi konvensiya ustida ish olib bormoqda va Yevropa Parlamenti 2008-yil 12-martdagi rezolyutsiyasida GAP loyihasining ijtimoiy, ekologik, madaniy va geosiyosiy oqibatlarini haqida izoh berdi. Izoh so'ngida Turkiya hukumatini "Bu masalalarda jabrlangan aholi huquqlarini himoya qilishni to'liq hisobga olishga" chaqirgan.

Turkiya o'z bayonotida Iroq suv infratuzilmasi yomon boshqarilishini, ta'mirlash ishlari bajarilmasligidan e'tiroz bildirmoqda. Xususan Turkiya mojaroli vaziyatlar kelib chiqishining asosiy sababi qilib mamlakat suv bilan to'liq ta'minlay olmasligini ko'rsatmoqda. Bunga asos sifatida Suriya suv resurlari nobudgarchiligi 60 foizini tashkil qilayotgani ko'rsatilgan.

Suv resurslar nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi munosabatni, balki mamlakatlardagi ichki siyosatni olib borishda ham qo'llaniladi. Xususan, 1992-yilda Iroqda Saddam rejimiga qarshi chiqqan shia qabilalarini jazolashda suvsiz qoldirishdan foydalanilgan. Bu o'z o'rnida ular joylashgan Iroq Janubidagi botqoqlarda qurg'oqchilik kelib chiqishiga sabab bo'lgan [6]. Bunday taktika ISHID tomonidan ham foydalanilganligi haqida xabarlar mavjud. Bu suvning, ziddiyatlardagi ehtimoliy sababchisi sifatidagi ahamiyatini namoyish qiladi.

To'g'onlar xavfsizligi Qo'shma Shtatlarning 2003-yildagi Iroqdagi harbiy operatsiyasining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Suv tanqisligi vayronkor salohiyatga egaligi hamda suv tanqisligi tinch aholi hayotiga ham, siyosiy barqarorlikka ham ta'sir qilishi mumkinligi o'sha yillarda ham qayd etib o'tilgan [7]. Suriyada suv tanqisligi IShID muvaffaqiyatida asosiy o'rinlardan birini egalladi. Suv tanqisligi sabab aholi qishloq joylaridagi uylarini tashlab, Halab va Damashqqa ko'chib ketdi. Munosib ish bilan ta'minlanmagan va yashash sharoitlari yomon holatda ko'chirilgan oddiy fuqarolar IShIDning iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy tartib haqidagi va'dalarini so'zsiz qabul qila boshladilar. Resurslar barqarorligi va suv boshqaruvi barqarorligi bo'lmagan holda ijtimoiy barqarorlik yaratish murakkab sanaladi.

Furot ko'li, uning to'g'onidagi GES Raqqa va Halab sharqidagi suv va elektr manbai sanaladi. Yaqin vaqtgacha uning hajmi 14,2 milliard kub metrdan oshiq edi. Turkiya va "Islomiy davlat" xatti-harakatlari tufayli uning hajmi sezilarli darajada tushib ketdi [8]. 2015-yil yoziga kelib, Furot daryosi sathi, uning normal sathining 50 foizidan pastga tushib ketdi. Bu turbinalarning yarmidan kami elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ishlayotganini anglatadi. 1987-yildagi Turkiya va Suriya orasidagi suv taqsimoti bitimiga ko'ra, Turkiya Furotdan Suriyaga sekundiga 500 kubometr suv oqimiga ruxsat berishi lozim. Ta'kidlash joizki, Iroq bilan bunday shartnoma yo'q va Dajla daryosi bo'yicha biror xalqaro shartnoma tuzilmagan. [9] Biroq, bunga javoban, Turkiya Suriyadan kurd isyonchilarining Suriya hududida yashashi masalasida hamkorlik qilishni so'radi. Bu, suv ta'minoti ustidan nazorat qanday qilib savdolashish vositasi sifatida ishlatilmoqda va bu mintaqaning kelajagini buzishini anglatadi. Xalqaro hamjamiyatda o'z huquqlarini ilgari surishi yoki neft zaxiralaridan savdolashish vositasi sifatida ishlatishni hisobga olmasa, Iroq kam siyosiy ta'sirga ega.

Turkiya hukumati Otaturk to'g'onini yopib qo'yganidan so'ng, 2014-yil aprel oyida suv kam bo'lganligi IShID ning Turkiya hukumatining suv xo'jaligini tanqidiga asosiy sababchi bo'ldi. IShID Iroqda o'g'irlab ketilgan Turkiya konsulini ozod qilish evaziga Furot daryosini qayta ochishni so'radi [8]. Agar suv ta'minoti tiklanmasa, kuch ishlatilishi mumkinligi haqida xabar berilgan

Suriyadagi fuqarolar urushidan avval, mamlakatning 60% hududi qurg'oqchilikni boshdan kechirdi. Oqibatda 1 milliondan asosan sunniy bo'lgan dehqonlar, alaviylar boshqaradigan qirg'oqbo'yi hududlarga ko'chib ketdilar. Bu o'z o'rnida oziq-ovqat narxining ko'tarilishi bilan bir qatorda mazhablararo ziddiyatni kuchaytirib yubordi. Suriya hukumati 2006-yildan 2010-yilgacha bo'lgan qurg'oqchilik ta'sirini yumshatish yo'lida deyarli hech bir chora ko'rmadi. Buning oqibatida 2011-yilda paydo bo'lgan

norozilik qo'zg'olonga va fuqarolik urushiga aylanib ketdi. Bu beqarorlik IShIDga muammodan manfaat ko'rishga imkon berdi. Bundan tashqari, 2009-yilda yapon va isroillik iqlimshunoslar Shom o'lkasida (Yaqin Sharqdagi qish oylarida yog'ingarchilik keskin oshadigan mintaqqa) qurg'oqchilik yuzaga kelishi mumkinligini taxmin qilishgan.

Taxminlarga ko'ra, agar qurg'oqchilik shu zaylda davom etaversa, asr oxiriga borib mintaqqa yer resurslarining unumdorligi to'liq yoqolib ketishi mumkin. Qurg'oqchilikning nizolarga ta'siri ko'pincha yetarli darajada e'tiborga olinmaydi. Daryolar qurigan sari, mavjud resurslar uchun kurashish vasvasasi kuchayib boradi. Albatta, qurg'oqchilik davrida yoki suvni taqsimlash to'g'risidagi bitimlar tuzilganda ham nizo kelib chiqmasligi ehtimoli yuqori. Ko'p yillar davomida suv resurslarini tinch yo'l bilan bo'lishib kelishga, Isroil va lordaniya yaqqol misol bo'la oladi. Agar samarasiz suv boshqaruvi va hamkorlar o'rtasida siyosiy beqarorliklar bo'lsa, suv resurslari ortidan mojarolar va ijtimoiy qiyinchiliklar kelib chiqishi ehtimoli mavjud. Bundan tashqari, o'zaro bog'langan suv havzalari mavjud bo'lgan joylarda suv xavfsizligini ta'minlash uchun texnik ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yish muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalishda ham mintaqada ishlar tizimli yo'lga qo'yilmagan.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, rivojlanmagan hududlarning aholisi uchun qishloq xo'jaligida zarur bo'lgan suv ta'minoti to'xtatilsa, tinch aholi suvni qo'riqlashni va'da qilgan har qanday harakatga oson qo'shib ketadi. Bunda harakatning mafkurasini to'g'ri yoki noto'g'ri oxirgi o'rinda e'tiborga olinadi. Bu bilan mahalliy aholi orasida IShID mafkurasini jozibadorligini izohlash mumkin. Neft va suv kabi resurslarning ahamiyatini tushungan IShID

bu manbalar uchun raqibi Jabhat an-Nusra bilan bir necha bor jang qilgan. Bu ta'sirning Misr, Efiopiya va Mag'rib kabi boshqa hududlarga yoyilishi, Yuqori Nil va Shom mintaqasini nazorat qilishni ham o'z ichiga oladi. Ehtimol, IShID Iroqdagi suvni nazorat qila olgani, Dajla-Furot havzasining asosiy to'g'onlari tagida joylashgan Bag'dodni ishg'ol qilganini izohlaydi.

Tarixda resurs uchun olib borilgan janglar ko'p bora keltirib o'tiladi. Resurslar orasida neft va suv alohida qimmatligi sababli, ziddiyatlarning asosiy manbai bo'lib kelgan. Shu bilan birga, qazima resurslar va qazib olinmaydigan resurslar o'rtasidagi farqni ta'kidlash lozim. Stenford universiteti eksperti Jeremi Vaynshteyn isyonchi guruhning resurs bazasi va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, tuzilishi va xulq-atvori haqida maqola yozgan. Vaynshteyn fikricha, resurslarga boy isyonchi harakatlar qonuniy siyosiy harakatlardan ko'ra ko'proq jinoiy guruh alfozida harakat qilib, yomon intizomli va mojaro keltirib chiqarish ehtimoli ko'proq bo'lgan opportunistlar va kallakesarlarni ko'proq o'ziga jalb qiladi. [10] Biroq, har xil turdagi resurslar

xulq va intizomga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Narkotiklar yoki qimmatbaho toshlar kabi manbalar separatistlarni yerga yoki odamlarga e'tibor bermasdan tez harakat qilishga chorlasa, suv kabi tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyoj separatistlar va tinch aholi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning oshishiga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, neft va suv kabi resurslar "Islomiy davlat" boshqaruvining izchilligi va intizomiga o'z hissasini qo'shganligini taxmin qilishimiz mumkin. + IShIDning Falluja, Raqqa va Mosuldagi beparvo xatti-harakatlari uning infratuzilmadan yumshoq kuch vositasi sifatida foydalanish qobiliyatiga ega emasligidan dalolat beradi. Oxirgi qochqinlar inqirozi va yetarli suv resurslariga bo'lgan ehtiyojning oshishi sharoitida suv nazorati alohida ahamiyatga ega. Suriyalik va Iroqlik qochqinlar Yaqin Sharqning suv eng ko'p bosgan hududlariga ko'chib o'tmoqdalar. Bu mintaqqa Hindiston shimolidan keyin dunyodagi ikkinchi eng tez suv yo'qotayotgan mintaqqa sanaladi.

To'rtinchi o'yinchi – IShID paydo bo'lishi bilan suv geosiyosiy tashvishning asosiy maydoniga aylandi. Geostrategik nuqtai nazardan, suv ta'minoti ustidan nazorat uch jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega teb ta'kidlanadi: uni mojarolar va urushlarda qurol sifatida ishlatish, qo'llab -quvvatlanishni qonuniylashtirish va siyosiy muzokaralarda ustunlikka erishish. Tahlilchilar, shuningdek, IShID siyosiy muzokaralarda suvdan savdolashish vositasi sifatida foydalanganini taxmin qilishadi. [12] Biroq, suvni urush quroli sifatida ishlatish qishloq xo'jaligini, kundalik hayotni va ishlayotgan normal davlatni qurish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani buzadi.

XULOSA

Yaqin Sharq qurg'oqchil va suv resurslari uchun eng yomon mintaqalardan biri hisoblanadi. Bu haqiqat bir qancha mojaro va urushlarni keltirib chiqardi, chunki chuchuk suv ta'minoti bu mintaqada hayot, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va siyosiy barqarorlik uchun zaruriy ahamiyatga ega.

Suv yetishmasligi mojarosi XX-asrning o'rtalarida Dajla-Furot havzasi mintaqasida, Turkiya, Suriya va Iroq qurolli to'qnashuv yoqasida bo'lganida boshlangan. Qishloq xo'jaligi, tirikchilik va iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadigan Arab bahori va Suriyadagi fuqarolar urushining sabablaridan biri bu suv tanqisligidir.

Dajla va Furot havzalari Turkiya, Suriya va Iroqning asosiy suv manbalaridir. Bu davlatlar hech qachon hamkorlik qilishga rozi bo'lishmagan, bu resursni bir -birlari bilan teng ravishda bo'lishishgan va shu tariqa bir necha bor urush yoqasiga etgan keskinliklarni keltirib chiqarishgan. Mojaroning asosiy sabablari – aholi soni, oziq-ovqat yetishmasligi, energiya xavfsizligi, iqtisodiy va texnologik taraqqiyot, siyosiy tarqoqlikdir.

Oldingi muzokaralar natijasida Dajla va Furot havzasidan birgalikda foydalanish bo'yicha juda kam doiraviy bitimlar tuzilgan va bu boradagi muzokaralarning aksariyati to'xtab qolgan. Mintaqada suv gegemoni bo'lgan Turkiya, hamkorlikdan unchalik foyda ko'rmaydi.

Hozirda Suriya va Iroq suv tanqisligiga duch kelmoqda, minglab odamlar va dehqonlar suv tanqisligidan aziyat chekmoqda. Suriya va Iroq uchun suv tanqisligi muammosi ISHID bilan muammoni hal qilmaguncha muhim ahamiyatga ega bo'lmay turdi. Ertami-kechmi, har ikki mamlakat ham suvga bo'lgan ehtiyojini qondirishga harakat qiladi.

Hozircha Turkiya Suriya va Iroqning joriy holatidan foydalanib, o'z rejalariga binoan Furot va Dajla daryolari suvlarini nazorat qilishni davom ettirishi mumkin. Barcha prognoz modellari bu mintaqaning suv resurslarining kelajagi noaniq deb hisoblaydi. Bu mamlakatlararo ziddiyatni imkon qadar tezroq hal qilish va muammoni bartaraf etish uchun uni hamkorlik bilan almashtirish kerakligini anglatadi. Bunga barcha taraflarni konsensusga yetishtira oladigan kuchli va nufuzli vositachi orqali erishish mumkin. Bu vositachilarga eng yaxshi nomzodlar AQSh, Yevropa Ittifoqi yoki Jahon banki hisoblanadi, chunki ular tajribaga, siyosiy, moliyaviy va texnik kuchlarga ega.

Turkiya, Suriya va Iroq o'z suv resurslarini boshqarishning uzoq muddatli, ko'p tomonlama kelishilgan strategik rejasini ishlab chiqishi lozim. Bu reja moliya, kadrlar, texnologiya, axborotni samarali boshqarishni nazarda tutuvchi "resurslarga bog'liqlik nazariyasi"ga asoslangan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, suvdan qimmatli manba sifatida oqilona foydalanish Dajla va Furot havzasi va Yaqin Sharq mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning asosiga aylanish imkoniga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Water-Shortage Crisis Escalating in the Tigris-Euphrates Basin // Future Directions International. 28-avgust 2012-yil. – Elektron manba: <http://www.futuredirections.org.au/publication/water-shortage-crisis-escalating-in-the-tigris-euphrates-basin/>
2. Rains D. W. Water Wars: Drought, Flood, Folly and the Politics of Thirst. Nyu-York: "Penguin" nashriyoti, 2002-yil.
3. European Parliament, European Parliament Resolution on Country-region Place. Turkey's Progress Report 2008. 13-fevral – Elektron manba: http://www.mfa.gov.tr/site_media/html/ap-2008-turkiye-raporu.pdf
4. Vidal Jh. Water Supply Key to Outcome of Conflicts in Iraq and Syria, Experts warn // The Guardian. 2-iyul 2014-yil.

5. Mayen N., Temper L., Behind the Veil of the Islamic State is a War for Water // Ejolt. 9-Sentyabr. 2014-yil. – Elektron manba: <http://www.ejolt.org/2014/09/behind-the-veil-of-the-islamic-state-is-a-war-for-water/>
6. Paraszczuk J. (Y. Parashchuk) ISIS is Waging a 'Water War' in Southern Iraq // Business Insider. 28-iyun 2015-yil
7. Johnson K. Water Wars in the Land of Two Rivers // Foreign Policy. 1-iyul. 2014-yil.
8. Abdulrahman al-Masri, Turkey's Control of the Euphrates Might Lead to Disaster // Middle East Monitor. 23-iyun 2014-yil
9. Zaid Sabah, Selcan Hacaoglu and Jack Fairweather, Water Shortages Unite Iraq, Islamic State Against Turkey // Bloomberg. 1-iyul 2015-yil.
10. Weinstein J.M. Resources and the Information Problem in Rebel Recruitment // Journal of Conflict Resolution. Vol. 49. 4 son Avgust 2005-yil
11. Le Billon Ph, Nicholls E. Ending 'Resource Wars': Revenue Sharing, Economic Sanction or Military Intervention? // International Peacekeeping. 2007. Nashr 14. 5- son
12. Beach Al. Guest Post: The Islamic State's Water War, Politics, Power, and Preventative Action // Council on Foreign Relations Blog. 5-may. 2015-yil – Elektron manba: <https://www.cfr.org/blog/guest-post-islamic-states-water-war>